




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

23 fevral, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 23 fevral 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 5,686% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 5,659% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,650-6,076% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 5,823% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 5,773% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,765-6,717% gacha o'zgarib turdi.



AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,137% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,077% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,071-6,717% gacha o'zgarib turdi.



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 5,835% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 5,819% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 6,317% gacha o'zgarib turdi.


2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,041% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarilib va 9,046% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,034% – 9,422% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,63-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,66% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u ko'tarilib 3,67% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,024% (3 oylik) va 2,141% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,172% (6 oylik) va 2,2% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 796,0 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 192,5 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 191 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 12 212 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 1,80% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




23.02.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Infinbank* bankda qayd etilgan – 12 170 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 190 – 12 270 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Aloqa bank* da qayd etilgan – 12 150 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 140 – 12 110 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



USD/RUB: Barqarorlik namoyon bo'lmoqda

16-fevraldan 20-fevralga qadar dollar rublga nisbatan barqarorligini saqlab qoldi. 16-fevral kungi 77,0–77,2 darajasidan so'ng, kotirovkalarda sezilarli tebranishlar kuzatilmadi va 20-fevral holatiga ko'ra ko'rsatkich 77,2 darajasida qayd etildi.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, bozor hozirda barqarorlashuv bosqichida bo'lib, kursning kelgusi dinamikasi tashqi iqtisodiy omillar hamda yangiliklar oqimiga bog'liq bo'ladi.



RUB/CNY: Barqaror holat saqlanib qolmoqda

16-fevraldan 20-fevralga qadar rublning xitoy yuaniga nisbatan kursi minimal darajadagi tebranishlarni namoyon etdi. Kurs 17-fevral holatiga ko'ra 11,2 dan 11,1 darajasiga pasayganidan so'ng, kotirovkalar barqarorlashdi va 20-fevralga kelib ham 11,1 ko'rsatkichida o'zgarishsiz qoldi.

Ekspertlarning qayd etishicha, bozor hozirda barqarorlashuv bosqichida bo'lib, qisqa muddatli intervalda sezilarli yo'nalishlar kuzatilmayapti.




EUR/USD: Pasayishdan so'ng barqarorlashuv kuzatilmoqda

16-fevraldan 20-fevralga qadar yevroning dollarga nisbatan kursi mo'tadil pasayish va konsolidatsiyalashgan harakatni namoyon etdi. 16-fevral kungi 1,1875 darajasidan so'ng, kurs bosqichma-bosqich pasayib, 20-fevralga kelib 1,1807 ko'rsatkichigacha tushdi.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, joriy kursning 1,1810 atrofida barqarorlashishi bozordagi bosqichidan dalolat beradi. 1,1820 darajasining yuqoriga qarab yorib o'tilishi esa yaqin kunlarda yevro kursining ehtimoliy o'sishi uchun signal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,




Oltin narxi qisqa muddatli pasayishdan so'ng yana ko'tarila boshladi



16-fevraldan 20-fevralga qadar oltin kotirovkalari yuqori o'zgaruvchanlikni namoyon etdi. 17-fevral kuni narxlar 4877,3 birlikkacha pasayganidan so'ng, qayta tiklanishni boshladi va 20-fevralga kelib oltin narxi 5103,5 dollargacha ko'tarildi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, ushbu o'sish xavfsiz aktivlarga bo'lgan talabning qayta tiklanishi bilan bog'liq. 5100 dollarlik ko'rsatkichning yuqoriga qarab ko'tarilishi trendini esa yaqin kunlarda yanada kuchaytirishi mumkin.

Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxida ishonchli o'sish sur'atlari kuzatilmogda




16-fevraldan 20-fevralgacha bo'lgan davrda Brent markali neft kotirovkalari yuqoriga yo'naltirilgan dinamikani namoyon etdi. 16-fevral kuni bir barrel uchun narx 68,65 dollarni tashkil etgan bo'lsa, 17-fevralda 67,42 dollargacha biroz pasayish kuzatildi.

Biroq, 18-fevraldan boshlab narxlarning barqaror o'sishi qayd etildi: dastlab 70,35 dollargacha, so'ngra 19-fevralda 71,66 dollargacha ko'tarildi. 20-fevral kuni kotirovkalar haftalik maksimum (eng yuqori nuqta) yaqinida saqlanib qolgan holda, 71,46 dollargacha biroz korreksiya qilinishi bilan yakunlandi.

Narxlarning ko'tarilishi taklifning qisqarishi borasidagi kutilmalar, geosiyosiy omillar hamda bozordagi ijobiy kayfiyat fonida talabning ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



Hafta yakunida gaz narxlaridagi tebranishlari kuchaydi



16-fevraldan 20-fevralgacha bo'lgan davrda Niderlandiyadagi TTF Yevropa xabida gaz kotirovkalari bir megavatt-soat uchun 34,09–39,1 dollar oralig'ida tebrandi.

16–18-fevral kunlari narxlar bir megavatt-soat uchun 36,7 dollardan 34,09 dollargacha pasaygan bo'lsa, 19-fevralda narxning 39,1 dollargacha keskin ko'tarilishi kuzatildi. Allaqachon 20-fevralga kelib, narxlar 36,5 dollar ko'rsatkichigacha korreksiya qilindi (biroz pastladi).

Ushbu dinamika ob-havo omillari, talab bo'yicha kutilmalar hamda bozor ishtirokchilarining spekulativ faolligi ta'sirini aks ettiradi.

Yangiliklar

T-Bank Rossiyaning ommabop metavolamida ilk to'liq virtual bo'limini ochdi. Mijozlar endilikda VR-avatarlar yordamida maslahatlar olishlari hamda noyob NFT-dizaynga ega raqamli kartalarni rasmiylashtirishlari mumkin.



Yevropa banklari va moliyaviy ekspertlar Visa hamda Mastercard to'lov tizimlariga Yevropa muqobilini yaratish zarurati haqida faol ravishda fikr bildirmoqda — asosan xorijiy provayderlarga qaramlik xavfi tufayli.



Denizbank xorijliklar orasida eng ommabop banklardan biri bo'lib qolmoqda. Fevral oyida bank barqaror rivojlanish dasturlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Osiyo taraqqiyot bankidan (OTB) 100 million AQSh dollari miqdorida kredit liniyasini jalb qildi.



Commerzbank 2026-yil yakunlariga ko'ra foyda dastlab belgilangan maqsadlardan yuqori bo'lishini kutmoqda, garchi restrukturizatsiya xarajatlari sababli bir yil avval foyda biroz kamaygan bo'lsa ham.

